MAMLAKATIMIZ IQTISODIY FAROVONLIGI HAMDA IJTIMOIY TARAQQIYOTINING YUKSALISHIDA TADBIRKOR HAMDA KICHIK BIZNESNING O‘RNI VA ROLI

Rasulov Sherzod Sharof o‘g‘li
JizPI., “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi assistenti
Turg‘unova Feruza Shodiyor qizi
JizPI., Kimyo muhandisligi fakulteti talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada kichik biznes va tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishdagi roli ochib berilgan.

Kalit so‘zlar

Tadbirkorlik, kichik biznes, iqtisodiy taraqqiyot, ish o‘rinlari, daromad

Аннотация

В данной статье Раскрыта роль малого бизнеса и предпринимательства в обеспечении экономического развития страны, создании новых рабочих мест, повышении доходов и благосостояния населения.

Ключевые слова: предпринимательство, малый бизнес, экономический прогресс, рабочие места, доход

Abstract

This article reveals the role of small business and entrepreneurship in ensuring the economic development of the country, creating new jobs, increasing incomes and well-being of the population.

Keywords: entrepreneurship, small business, economic progress, jobs, income

Bugungi kunda xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash va ular uchun munosib bo‘lgan turmush sharoitini yaratish ijtimoiy sohaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyev tomonidan ayollar tadbirkorligini rivojlantirish,ularning ijtimoiy faolligiga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Tadbirkorlik o‘zi nima? Tadbirkorlik inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib bandlik degan ma’noni anglatadi. Bu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxs esa tadbirkor deb yuritiladi.

Tadbirkorlik bugungi rivojlangan O‘zbekiston fuqarolari ko‘p ishlatadigan jumlaga aylanib bo‘ldi.

Respublikamizda hozirgi kunda tadbirkorlik bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan insonlar uchun qanchadan qancha imkoniyatlar eshigi ochib qo‘yilgan. Tadbirkor bo‘lish istagida bo‘lgan insonlar bu imkoniyatlardan samarali foydalanishmoqda.

Hozirgi paytda mamlakatimizda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan alohida e’tibor sabab, tadbirkor ayollar soni yildan yilga o‘sib bormoqda. Tadbirkorlik bo‘yicha o‘z bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish va oshirish maqsadida tadbirkorlik bo‘yicha qisqa o‘quv kurslari shakllantirilmoqda. Qolaversa, “Ayollar daftari” ro‘yxatiga kiritilgan xotin qizlarni bandligini ta’minlash va tadbirkorlikka jalb qilish borasida turli xil amaliy yordamlar ko‘rsatilmoqda. Shuni aytib o‘tish kerakki, mahalla tomonidan ayollar uydan chiqmagan holda tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi uchun imkoniyatlar yaratilgan. Misol uchun uyning hovlisida issiqxona qurib va u orqali daromad olish mumkin. Mahalla moliyaviy jihatdan imkoniyati cheklangan oilalar uchun tadbirkorlik uchun zarur bo‘ladigan uskunalar bilan ta’minlashishi mumkin. Agarda mahalla biror oila yoki ayol uchun inkovator, jo‘ja ochadigan mashina berilsa, u orqali ayol o‘z tadbirkorligini boshlashi va daromad olishi mumkin albatta. Bundan tashqari “Yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish dasturlarini samarali amalga oshirish hamda ularning tadbirkorlik faoliyati uchun mikrokreditlar ajratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Hukumat qarori bilan Tadbirkorlik tashabbusiga ega jismoniy shaxslar, shu jumladan, yoshlar va xotin-qizlarga mikrokreditlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlangan. Nizomga ko‘ra, tadbirkorlik tashabbusiga ega jismoniy shaxslar, shu jumladan, yoshlar va xotin-qizlar, shuningdek, mikrofirma va kichik korxona ta’sis etgan shaxslar (qarz oluvchilar) kredit olish uchun “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki yoki aksiyadorlik-tijorat Xalq bankiga elektron ariza bilan murojaat qiladi.

Bundan tashqari Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi hisobidan 3 yilgacha va 6 oygacha imtiyozli davr bilan yillik 14 foiz stavkada 33 million so‘mgacha kreditlar beriladi. Buning uchun quyidagi dasturlardan birini samarali tamomlagan bo‘lishi lozim:

- Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi va Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi ma’qullangan dasturlar asosidagi o‘quv kurslari;
- «Ishga marhamat» monomarkazlari, kasb-hunarga o‘qitish markazlari, mahallalardagi kasb-hunarga o‘qitish maskanlari va Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari yoki nodavlat ta’lim muassasalarining kasbga o‘rgatish o‘quv kurslarining maxsus o‘qitish dasturlari.

Tadbirkor ayollar yildan yilga ko‘paymoqda. Ularning soni bir yilda qariyb 45ming nafarga ko‘payib, ular tomonidan bo‘sh ish o‘rinlari taqdim etilmoqda.So‘ngi yillarda aholining ko‘pchilik qismi ham tadbirkorlik (biznes) haqida o‘ylashadi.

Hozirgi davrda bo‘layotgan o‘zgarishlar va rivojlanish jarayonlari kengaymoqda va albatta kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ayollarning o‘rni ham oshmoqda. O‘tgan bir necha yillar ilgari ayollarga turli cheklovlar bo‘lgan bo‘lsada hozirga kelib cheksiz imkoniyatlar mavjud. Xususan, ayollar va erkaklar tengligi va ayollarni kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik haqidagi masalalar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo‘yilgan. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida va Mehnat kodeksining 6-moddasida mehnatga oid masalalarda xotin-qizlarni kamsitish taqiqlanishi keltirilgan. Ayollar milliy iqtisodiyotni rivojlanish va yangilanish borasidagi chora-tadbirlarda faol ishtirok etar ekanlar, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda ayollar mehnatining tobora ommalashayotganligi haqiqatdir.

Ular ham o‘z tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanib, ko‘pgina bo‘sh o‘rinlar yaratishmoqda va o‘zlarini ham band qilmoqda va davlatga foyda keltirmoqda.

Xulosa o‘rnida aytib o‘tish mumkinki, ayollarni chetga chiqarish kerak emas, balki aollar uchun ko‘pgina imkoniyatlar yaratib berilishi va erkinlik berilishi lozim va albatta ayollar yaratilgan imkoniyatlardan iloji boricha samarali va maqsadli foydalanishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gaybullayevna, R. S. ., & Musurmangulov. (2024). THE IMPORTANCE OF TIME MANAGEMENT IN ENSURING EFFICIENCY IN CONSTRUCTION. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, *3*(1), 28–31.

2. Gaybullayevna, R. S. (2023). THE STATE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY: PROBLEMS AND SOLUTIONS. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, *2*(12), 38-42.

3. Sharifa, R., & Ilyos, T. (2023). PRINCIPLES OF SCIENTIFIC MANAGEMENT IN MANAGEMENT. *Новости образования: исследование в XXI веке*, *2*(16), 1097-1100.

4. Sharifa, R., & Sayyora, M. (2023). HISTORY OF EMERGENCE OF MANAGEMENT AND ITS PLACE TODAY. *Новости образования: исследование в XXI веке*, *2*(16), 1093-1096.

5. Sharifa, R. (2023). DIRECTIONS FOR INCREASING INVESTMENT ATTRACTIVENESS IN REGIONS. *Новости образования: исследование в XXI веке*, *2*(16), 1088-1092.

6. Sharifa, R., & Nozima, T. (2023). QUALITY MANAGEMENT IN COMPETITIVE CONDITIONS IS THE MAIN FACTOR OF ENTERPRISE SUCCESS. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, *2*(20), 200-203.

7. Sharifa, R., & Mahliyo, K. (2023). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF ENTERPRISES AND THEIR APPEARANCES. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, *2*(5), 77-83.

8. Gaybullayevna, R. S. (2023). WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IS A FACTOR OF INCREASE IN OUR COUNTRY'S ECONOMIC WELFARE AND SOCIAL DEVELOPMENT. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, *2*(5), 73-76.

9. Gaybullayevna, R. S. (2023). MODERN FUNDAMENTALS OF FINANCIAL MANAGEMENT OF INVESTMENT ACTIVITY. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, *2*(5), 51-54.

10. Gaybullaevna, R. S. (2023). Methods for Assessing the Economic Efficiency of Investments in Construction. *European Journal of Higher Education and Academic Advancement*, *1*(1), 95-98.

11. Gaybullaevna, R. S. (2023). Construction Industry in Uzbekistan Is an Important Priority Network of the National Economy. *Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress*, *2*(3), 69-71.

12. Qamarov Asadbek Zafar o’g’li, & Rasulova Sharifa G’aybullayevna. (2023). BIZNESINGIZ UCHUN SAMARALI MARKETING STRATEGIYALARINI QANDAY YARATISH MUMKIN. *Scientific Impulse*, *2*(14), 305–312.